

Jonimqulov Shohruh Anvarjon o'g'li

Termiz Davlat universiteti

e-mail: shohruhjonimqulov66@gmail.com

+998934073807

Norqulova Marjona Oybek qizi

e-mail: oybeksalayev23@gmail.com, +99894-441-08-19.

Ashurova Dinora Shavkat qizi

Termiz davlat universiteti talaba

E-mail: iboderali0101@gmail.com. +99899-594-06-01

Soatmurodova Madina Ro'zi qizi

Termiz davlat universiteti talaba

e-mail: madinasoatmurodova2006@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Abu Homid G'azzoliyning "Mukoshafatul qulub" asarining mazmuni, unda ilgari surilgan asosiy g'oyalar va inson qalbini poklash masalalari yoritilgan. Shuningdek, qalb kasalliklari va ularni bartaraf etish yo'llari ilmiy-tahliliy jihatdan bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Qalb, tasavvuf, axloq, poklanish, nafs, zikr, tavba, ixlos, ma'naviyat

Kirish

"Mukoshafatu-l-qulub" asari Abu Homid G'azzoliy ijodida alohida o'rin tutadi. Asar arab tilida yozilgan bo'lib, 111 ta bobni o'z ichiga oladi. Unda imon, namoz, zakot, sabr, qanoat, go'zal axloq, Allohga itoat, qo'shnichilik haqi, g'iybat, sadaqa, foiz, musiqa tinglash, badgumonlik, mayxo'rlik kabi juda ko'plab fihiy va hayotiymaishiy masalalarga e'tibor qaratilgan. Muallif mazkur mavzularni yoritishda ularga mos Qur'oni Karim oyatlari va hadislarni keltiradi hamda mavzuga doir hikoyatlar, hikmatlardan foydalanadi. Yaxshilikka chaqirish, boriga qanoat va shukr qilish, yo'g'iga sabr qilish kabi sifatlarga undovchi hikmatlar asarda juda ko'plab keltiriladi. Mazkur manbada ushbu qisqa kirish so'zdan so'ng asarning asosiy matni boshlanadi. Asosiy matndan so'ng kitobning kolofon qismida "Daru-l-kutubi-larabiyiyati-l-kubro"

matbaasining Tahrir bo‘limi boshlig‘i Muhammad Zahriy G‘amroviyning so‘ngso‘zi berilgan. Islom tafakkuri tarixida Abu Homid al-G‘azzoliy o‘zining chuqur falsafiy va tasavvufiy qarashlari bilan alohida o‘rin egallaydi. Yuqoridagi kirish so‘zdan shu narsa ma‘lum bo‘ladiki, bu kitob G‘azzoliy qalamiga mansub “Mukoshafatu-l-qulub” asarining muxtasaridir. Qo‘limizdagi toshbosmalar hamda asarning Misr, Livan nashrlari ham deyarli bir xilligini hisobga olsak, biz “Mukoshafatu-l-qulub” deb biladigan va bizgacha yetib kelgan asar aslida G‘azzoliyning “Mukoshafatu-l-qulub”i emas, balki uning noma‘lum muallif tomonidan tayyorlangan muxtasar shakli bo‘lishi ehtimoli bor. Uning “Mukoshafatul qulub” asari inson qalbi, uning poklanishi va ma‘naviy kamolotga erishish yo‘llarini yorituvchi muhim manbalardan biridir. Mazkur asar nafaqat diniy-axloqiy qo‘llanma, balki insonning ichki dunyosini tahlil qiluvchi chuqur ruhiy-falsafiy asar sifatida ham qadrlanadi. Ushbu maqolada asarning mazmun-mohiyati, undagi asosiy g‘oyalar hamda uning bugungi kundagi ahamiyati tahlil qilinadi.

Asosiy qism

“Mukoshafatul qulub” asarida qalb tushunchasi markaziy o‘rinni egallaydi. G‘azzoliy qalbni insonning haqiqiy mohiyati deb hisoblaydi va barcha amallar aynan qalb holatiga bog‘liq ekanini ta‘kidlaydi. Qalb pok bo‘lsa, insonning xulqi va amallari ham pok bo‘ladi. Asarda qalb kasalliklari keng yoritilgan bo‘lib, hasad, kibr, riyo, ochko‘zlik va dunyoparastlik kabi illatlar insonning ma‘naviy kamolotiga to‘sqinlik qiluvchi asosiy omillar sifatida ko‘rsatiladi. Muallif bu illatlarning zararini ochib berish bilan birga, ulardan qutulish yo‘llarini ham tavsiya etadi. Qalbni poklash masalasi asarning eng muhim jihatlaridan biridir. Tavba, zikr, sabr, shukr va nafsni tiyish orqali inson o‘z ichki dunyosini tarbiyalashi mumkinligi alohida ta‘kidlanadi. G‘azzoliyga fikriga ko‘ra, haqiqiy komil insonning o‘z ustida ishlashi va qalbini poklashidan boshlanadi. Shuningdek, asarda dunyo va oxirat masalasi ham chuqur yoritilgan. Dunyo vaqtinchalik maskan sifatida baholanib, inson undan to‘g‘ri foydalanishi va oxirat uchun tayyorgarlik ko‘rishi zarurligi uqtiriladi. Amalning qadri esa uning ixlos bilan bajarilishiga bog‘liq ekani ta‘kidlanadi. “Mukoshafatu-l-qulub” asari hozirgi kunda ham dolzarb bo‘lib turgan masalalarni o‘z ichiga olgan va insonlarni to‘g‘ri yo‘lga boshlovchi, islom dini ahkomlaridan boxabar qiluvchi manba sifatida qadrlanadi. U «G‘azzoliyning necha asrlar ilgari yoqqan yuzlab mash‘alalaridan bir donasidir. Bu mash‘ala sochgan ziyo zamonlar osha so‘ngsizlik sari oqib borgusidir. Inson nasli to‘qiyomatgacha mavjud bo‘larkan, bu asar ham insoniyat uchun mangu ziyo manbai bo‘lib, azob-uqubatlar, g‘am-tashvishlar va behuzurliklar ichida iztirob chekayotgan shaxslar, siymolar va millatlarga huzur-halovat, baxt-saodat yo‘llarini

ko'rsatajak» "Mukoshafatu-l-qulub" asari hozirgi kunda ham dolzarb bo'lib turgan masalalarni o'z ichiga olgan va insonlarni to'g'ri yo'lga boshlovchi, islom dini ahkomlaridan boxabar qiluvchi manba sifatida qadrlanadi. U «G'azzoliyning necha asrlar ilgari yoqqan yuzlab mash'alalaridan bir donasidir. Bu mash'ala sochgan ziyo zamonlar osha so'ngsizlik sari oqib borgusidir. Inson nasli to qiyomatgacha mavjud bo'larkan, bu asar ham insoniyat uchun mangu ziyo manbai bo'lib, azob-uqubatlar, g'am-tashvishlar va behuzurliklar ichida iztirob chekayotgan shaxslar, siymolar va millatlarga huzur-halovat, baxt-saodat yo'llarini ko'rsatajak» So'nggi yillarda "Mukoshafatu-l-qulub" asari arab davlatlarida bir necha bor nashr qilindi. Masalan, Livanning o'zida olimlar Doktor Abdulloh Xolidiy, Abdulmajid Tama al-Halabiy, Abu Abdurahmon Saloh ibn Muhammad ibn Aviyda, Shayx Abdulvoris Muhammad Ali lar tomonidan nashrga tayyorlangan va chop etilgan. Misrning poytaxti Qohira shahridagi "Daru-l-hadis" nashriyotida 2004 yilda Ahmad Jod tomonidan nashrga tayyorlanib chop etildi. Mazkur nashr 416 sahifani o'z ichiga oladi. Kitob nashrga tayyorlovchining muqaddimasidan boshlanadi. So'ng "Kitobning G'azzoliyga nisbat berilishi haqida" nomli sarlavha ostidagi maqola va "Imom G'azzoliyning biografiyasi" nomi bilan olimning tarjimai holi keltirilgan. Noshir Ahmad Jod asarni nashrga tayyorlash ishiga jiddiy yondoshib, buning ustida ancha ishlar qilgan, G'azzoliy tomonidan keltirilgan iqtiboslarga havolalarda qisqacha sharh beradi. Ahmad Jod asarda keltirilgan hadislarning sifatiga e'tibor qaratadi. Deyarli har bir hadisga uni kimlar rivoyat qilgani, hadis roviylarining to'liq ismi-sharifi, qaysi davrda va qayerda yashab o'tgani, hadisning sahih yoki zaifligi, mashhur hadis to'plamlarida bor-yo'qligi, bor bo'lsa qavs ichida tartib raqami kabilar haqida havolada izoh qoldiradi. Masalan asarning "Tavba haqida" nomli 8-bobida keltirilgan hadisga Ahmad Jod havolada shunday izoh beradi: "Muttafaqun 'alayh. Bu hadisni Buxoriy "Nozik masalalar kitobi"da (6507), Muslim "Zikr va duo kitobi"da (2683), Termiziy "Janozalar kitobi"da (1066), Nisoiy "Janozalar kitobi"da (1836), Dorimiy "Nozik masalalar kitobi"da (2756) va Ahmad (22238) lar rivoyat qilishgan

Xulosa

Mashhur o'zbek shoiri, publisist, tarjimon Miraziz A'zam "Mukoshafatu-l-qulub" asarini turk tilidan o'zbek tiliga tarjima qilgan holda bir necha bor e'lon qildi. Biroq mutarjim tarjima jarayonida Turkiyada chop qilingan aynan qaysi nashrdan foydalangani haqida ma'lumot bermagan. Qizig'i shundaki, asarning O'ZR FA Sharqshunoslik institutida saqlanayotgan №7148 va №7185 inventar raqamli toshbosmalarida hamda qo'limizda mavjud bo'lgan Misr nashridagi ba'zi boblar, iqtibos sifatida keltirilgan Qur'oni karim oyatlari, hadislar, rivoyatlar asarning o'zbek tilidagi nashrida uchramaydi. Masalan, "Osmonlar va turli jinslar zikrida" (في ذكر)

السّموات والأجناس المختلفة (nomli yigirma to‘qqizinchi bob №7148 va №7185 inventar raqamli toshbosmalarda ham, biz yuqorida tilga olgan Misr va Livan nashrlarida ham mavjud, biroq o‘zbek tilidagi tarjimasida yo‘q. Ehtimol, bu tarjimon foydalangan nashrda kuzatilgan holatdir. Xulosa qilib aytganda, “Mukoshafatul qulub” asari inson qalbini poklash, ma’naviy kamolotga erishish va axloqiy jihatdan yetuk bo‘lish yo‘lida muhim qo‘llanma hisoblanadi. Undagi g‘oyalar bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan bo‘lib, insonning ichki dunyosini boyitishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abu Homid G‘azzoliy. Mukoshafatu-l-qulub. – Misr. Daru-l-kutubi-l-arabiyyati-lkubro. 1909. O‘zR FA Sharqshunoslik instituti. Toshbosma № 7148.
2. Abu Homid G‘azzoliy. Mukoshafatu-l-qulub. – Misr. Daru-l-kutubi-l-arabiyyati-lkubro. 1909. O‘zR FA Sharqshunoslik instituti. Toshbosma № 7185.
3. Ahmad Muhammad Tursun. Abu Homid G‘azzoliy. Hujjatul-islom va qalblar tabibi. – Toshkent: Qaqnus media; 2017.
4. Abu Hamid al-G‘azzoli. “Mukoshafatul qulub”.
5. Abu Hamid al-G‘azzoli. “Ihyo ulum ad-din”.
6. G‘azzoliy A.H. Tasavvufga oid asarlar to‘plami.
7. Islom falsafasi va tasavvuf tarixi bo‘yicha ilmiy manbalar.
8. Jalal ad-Din Rumi. “Masnaviy”.
9. Abu Hamid al-G‘azzoli. “Arba’in” (Qirq hadis sharhi).